



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Dusmurod DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov, J.E. Usarov**
Uzluksiz pedagogik ta'lim klasteri sharoitida kompetentlik talablari va ta'lim samaradorligi imkoniyatlari
- 8 **F.U. Jumanova, M.A. Halmuhamedova**
Naqshbandiya tariqatining uzluksiz ta'lim tizimidagi kasbiy kompetentlikni shakllanishdagi o'rni
- 13 **M. Tilakova, I.D. Odirov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mezonlari
- 17 **A. Yu. O'taev**
Boshlang'ich ta'limda siyosiy tarbiyani amalga oshirish innovatsiyasi
- 21 **S.A. Toshtemirova**
«Maktab-laboratoriya»lar uzluksiz ta'lim tizimini hamkorligini takomillashtirish mexanizmi sifatida
- 26 **O.M. Jabborova**
Yangi davrda uzluksiz ta'limning xususiyatlari
- 30 **Z.A. Umarova**
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda pedagogik konfliktlar - muhim ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
- 35 **G.S. Abdullayeva, M.S. Muxitdinova**
Musiqaterapia - alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya modellaridan biri sifatida
- 40 **S.A. Toshtemirova, B.A. Xolisov**
Integratsiya sharoitida uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari
- 44 **G.N. Sharipova**
Uzluksiz ta'lim sharoitida o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining pedagogik asoslari
- 50 **A.R. Rahmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
- 53 **A.A. Abdullaev**
Uzluksiz ta'limda jismoniy tarbiya va sport samaradorligini oshirish yo'llari
- 57 **M.F. Ourbonova, S.B. Qoraev**
Uzluksiz ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetentsiyasini shakllantirish yo'llari
- 63 **R. Musurmanov**
Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'smirlarni tarbiyalashda ijtimoiy nazoratning ahamiyati
- 67 **R. Shermuhammedov, N. Eshmanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni mehnat tarbiyasi orqali ijtimoiy rivojlanishlarini ta'minlash
- 71 **Sh. Jumaniyazov**
Uzluksiz ta'lim tizimi adabiyot darslarida badiiy asar tahlilining muhim juhati
- 77 **D. Zakirov**
Uzluksiz ta'limda ekologik bilimlarni rivojlantirishning klaster usulini yaratish
- 82 **M.N. Shermatov**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida «uzbol» sport o'yinini kiritishning xususiyatlari to'g'risida
- 87 **M.O. Raxmanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda tizimli yondashuvning dolzarbligi
- 93 **O.U. Abdimurotov**
Uzluksiz ta'lim tizimida modulli ta'lim texnologiyasining o'rni va ahamiyati
- 98 **Ж.Ф. Рагванов**
Методы работы с понятиями и терминами на уроках истории
- 102 **A.A. Burxanov, U. Mustanov**
Современные подходы к образовательному процессу в непрерывном образовании
- 107 **Z. Erkaboyeva, R. Eshbekov, G. Eshbekova**
Uzluksiz ta'limda matematik masalalarni yechishda xarakterli xatolar tahlili



DARS INTIZOMIGA SALBIY MUNOSABATDAGI O'SMIRLARNI TARBIYALASHDA IJTIMOY NAZORATNING AHAMIYATI

R. MUSURMANOV,
CHDPI dotsenti, p.f.n.

Maqolada voyaga etmaganlar orasida deviant xatti-harakatlarni oldini olish va dars intizomiga salbiy munosabatning oqibatlarini bartaraf etish muammosi tahlil qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: dars intizomi, salbiy munosabat, ijtimoiy nazorat, voyaga etmaganlar, deviant xulq-atvor, shahs rivojlanishi, qonunbuzarlik, jinoyatchilik, otanalar bilan ishlash.

В статье рассматриваются проблемы девиантного отношения среди подростков и отрицательного отношения учащихся к дисциплинам.

Ключевые слова: дисциплина урока, отрицательные отношение, общественный контроль, несовершеннолетние подростки, девиантного поведения, развития личности, правонарушения, преступления, работа с родителями.

The article discusses the problems of deviant attitudes among adolescents and the negative attitude of students to disciplines.

Key words: lesson discipline, negative attitude, public control, minor teens, deviant behavior, personality development, offenses, crimes, work with parents.

Hozirgi zamon sharoitida mavjud bo'lgan muammolar ichida voyaga etmaganlar o'rtasida u yoki bu ta'sirlarga beriluvchan yoshlarning deviant xatti-harakati masalasi dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Ushbu muammoni o'rganish orqali olingan statistik ma'lumotlarning tahlili Respublikamizda voyaga etmaganlar o'rtasida deviant xatti-harakatlarga moyil yoshlar hali ko'p ekanligini ko'rsatmoqda.

"Deviant xatti-harakatlar" tushunchasi voyaga etmagan yoshlarning xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqish degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakterlanadi. Deviant xatti-harakat ayniqsa, voyaga etmaganlar uchun xosdir. Ushbu davrda voyaga etmagan yoshlarning shahsiy hislatlari shakllanadi, uning o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shahsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va oqishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli-turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha maktabdagi darsga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, ichkilik ichadilar, giyohvandlikka ruju qo'yadilar. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar.

Hozir o'smirlar ichida sodir etilayotgan jinoyatlar, ya'ni o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik qilganlar tegishli qonunlarga muvofiq jazoni o'tash



va tarbiyalash muassasalariga yuboriladilar. Bu albatta to'g'ri. Chunki yuqorida nomlari keltirilgan jinoyatchilarning asosiy qismi bemor kishilar bo'lib, ular medicina hodimlari, psixologlar va ijtimoiy soha vakillarining yordamlariga muhtojdirlar.

Ammo shuni ham e'tirof etish kerakki, ko'pincha axloq tuzatish mehnat koloniyalari tarmog'i insonlarni tuzatish o'miga ularni jazolaydi. Ayrim hollarda ozodlikdan mahrum etiladiganlar saqlanadigan muassasalarda bolalar jinoyatchilikning turli yo'llari va usullari bo'yicha "saboq" oladilar. Ba'zilar deviant hattharakat ayni shu erda shakllanadi.

Odatda, deviant xatti-harakatning motivi bo'lmisligi mumkin. Ko'pincha o'smir jamiyatda o'rnatilgan tartibqoidalar, talablarga mos yashashni hohlaydi. Ammo ayrim hollarda mavjud sharoit bunga yo'l bermaydi. Natijada o'smir o'zini boshi berk ko'chaga kirib qolgandek his qiladi. Ana shunday vaziyatda unga turli jinoyatlar va jinoiy guruhlar bunday holatdan chiqishning yagona yo'li jamiyatda o'rnatilgan tartibqoidalarga qarshi chiqish, shu yo'l bilan o'zini namoyon etish, ya'ni toptalgan qadr-qimmatini tiklash ekanligini uqtiradilar. O'g'irlik, talonchilik, fohishabozlik, narkotik moddalarni sotish orqali orttirgan bu boyliklarini, mavqelarining isboti, misol sifatida keltiradilar. Hali ongi to'la shakllanib ulgurmagan o'smir esa ularning tuzog'iga ilinib qolishi hech gap emas.

Bunga yo'l qo'ymaslik uchun deviant xarakterli bolalar ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatishning samarali vositalaridan foydalanish katta yordam berishi mumkin.

Ular nimalardan iborat degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. quyida ushbu savolga javob topishga harakat qilamiz:

Ijtimoiy nazoratning asosiy omillari:

1. Ijtimoiy nazoratning uslub va vositalari deviant hattharakatning aniq turlariga mos bo'lishi lozim. Bu erda ijtimoiy nazoratning asosiy vositasi noo'rin hattharakatlarga moyil yoshlarning turli hil talablarini qondirishga qaratilishi kerak. Masalan, ilmiy, texnik, shuningdek, ijodkorlikning turli yo'nalishlariga o'smirlarni jalb qilish ularni noto'g'ri yo'ldan qaytarishda muhim omil bo'ladi.

2. Qonunbuzarlik va huquqbuzarlik yo'lga kirgan yoshlarga nisbatan ta'sir o'tkazishning repressiv usullarini ancha kamaytirish lozim. Ozodlikdan mahrum etish insonni ijtimoiy va axloqiy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli bu jazoni eng ohirgi chora sifatida qo'llash kerak bo'ladi. Demak, yosh qonunbuzarlarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish muddatlarini qisqartirish, jazoni ijro etishni kechiktirish, ularni shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etish, eng asosiysi o'smirlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash talab etiladi.

3. Ijtimoiy, davlat, jamiyat, hayriya va boshqa muassasa va tashkilotlar tomonidan beriladigan tarbiyaviy ta'sirlarning usul va uslublarini takomillashtirish darkor.

4. Oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish orqali bolalarning qarovsiz



qolishini oldini olish, ularni foydali mashgʻulotlarga jalb qilishning optimal yoʻllarini topish.

5. Yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy meʼyorlar prinsiplari asosida tarbiyalash, vijdon va soʻz erkinligi uchun imkoniyatlar yaratish, jamiyatda oʻz oʻmini topishga intilishini qoʻllabquvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aks qolda ruhiy tushkunlik, hayotda oʻz oʻmini topa olmaslik yoshlar uchun hayot mazmunini yoʻqotishi, ularning hatti-harakatlarida deviantlik характери shakllanishiga olib keladi. Bu ishda mahalla faollari, vositachilik, oʻzaro yordamga tayyor hayriya tashkilotlari, turli hil jamoat tashkilotlari oʻsmirlar sodir etgan jinoyatning ogʻir-engilligiga qarab maʼmuriy jazo organlari vakolatlarini oʻz zimmalariga olishlari mumkin.

6. Hozirgi zamon kompyuter texnikasi zamoni deyilmoqda. Yoshlar turli hil kasetalar, axloq meʼyorlariga zid kino filmlarni, zoʻrluk, zoʻravonlik, fohishabozlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikni targʻib etuvchi video mahsulotlarni koʻrishyapti. Bundan buyogʻiga yuqoridagi illatlarni targʻib etuvchi bunday narsalarni oʻlkamizga kirib kelishi va yoshlar oʻrtasida tarqalishi ustidan qattiq nazorat oʻrnatish darkor.

7. Totalitar tuzum sharoitida oʻsib, ongi shu tuzumga mos ravishda shakllangan fuqarolarning mentalitetini oʻzgartirish ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Jinoyat sodir etgan, tarbiyasi ogʻir, deviant karakterli bolalar bilan ishlaydigan huquq-tartibot idoralari hodimlari, ayniqsa, jazoni oʻtash joylaridagi yosh huquqbuzarlar bilan ishlovchilar, shuningdek, ijtimoiy-pedagoglar, ijtimoiy-psihologlar, narkolog-shifokorlar, yaʼni deviant karakterli bolalar bilan ishlaydigan barcha ijtimoiy soha vakillarini tayyorlash va qayta tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan hulosasi shuki, bolalarda deviant hatti-harakatlar shakllanishining talaygina sabablarini ochib berish uchun bu hatti-harakatlar jamiyatda mavjud boʻlgan insonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning inʼikosi ekanligini unutmaslik lozim. Ijtimoiy meʼyorlar va ulardan chetga chiqish jamiyatimizda faoliyat yurituvchi shahslar hatti-harakatlarining ikki qutblaridir.

Ijtimoiy axloq meʼyorlaridan chetga chiqish ijtimoiy meʼyorlari kabi rang-barangdir. Buning ustiga chetga chiqishning rang-barangligi meʼyorlarning rang-barangligidan koʻproqdir. Boshqacha qilib aytganda meʼyorlar tipik boʻlib, undan chetga chiqishlar ancha hususiy hisoblanadi. Masalan, bir odamning jinoiy xatti-harakati jinoiy kodeksda aniq ravshan belgilab qoʻyilgan moddaga toʻgʻri keladi, ikkinchi odamning sodir etgan jinoyati ham yuqoridagi moddaga toʻgʻri kelsada, oldingisiga oʻhshamasligi mumkin. Bu hol jinoyatlarni sodir etuvchilarning oʻzlari



ham bir-birlariga o'z hshamasligidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish bir-biridan farq qilishiga qaramasdan uning mavjudligi, o'sishi va tarqalishiga qarab umumiy sabablarga egadir. Ular o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi ob'ektiv va sub'ektiv qarama-qarshiliklarni o'zida aks ettiradi. Bu hol o'z navbatida shahsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatiga zarar etkazadi va mavjud tuzum tomonidan belgilangan ijtimoiy me'yorlar bilan kelisha olmaydigan shahslarda deviant hatti-harakatning shakllanishiga olib keladi.

Mamlakatda shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida va dunyoda yuz bergan iqtisodiy krizis natijasida vaqtinchalik qiyinchiliklar yuz berishi tabiiy hol. Bunday sharoitda aholining ayrim qatlamlarining moddiy ahvoli o'zgaradi. Ishsizlar soni ortishi tabiiy. Yoshlarning deviant xatti-harakatiga bunday holatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Yoshlar hayotidagi etishmovchiliklarni oldini olish, qiyinchiliklar sodir bo'lganda ularni qo'llabquvvatlash, muammolarini echimini topishga ko'maklashish ham me'yorlardan chetga chiqishning oldini olishning zaruriy sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda bu borada hukumatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda so'nggi sakkiz yil mobaynida voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik 19,8 foizga kamaygan. Shuningdek, yoshlar huquqlarini himoya qilish masalalariga bag'ishlangan konferenciya materiallarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda voyaga etmaganlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, ularni turli zararli ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan tizim shakllanayotganligi o'z samarasini bermoqda. Jamoatchilik, nodavlat tashkilotlar, huquqni himoya qilish organlari hamkorligidagi sa'y-harakatlar natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarnig oldi olinmoqda.

Xulosa qilish mumkinki, xalqimizning "Bolani begonasi bo'lmaydi" ibratli shiori ostida hamjihatlikda olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida dars intizomiga salbiy munosabatlarning oldini olish, barkamol insonni tarbiyalashga munosib hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adilov SH. Yoshlar va ma'naviy tarbiya. Qarshi-2007 y.
2. Tolipov O., Usmonboeva M.H., Fozieva L.M. O'quvchilarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning amaliy jihatlar. "Fan"-2007 y.
3. Fazilov J.K. O'zbekitonda mustaqillik sharoitida maktabdan tashqari ta'lim tizimini boshqarishning pedagogik asoslari (avtoreferat p.f.n. ilmiy daraja olish)-2007y.